



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

XX ASR IKKINCHI YARMIDA SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGIDA ICHKI SIYOSIY KUCHLAR NISBATI

Diyorbek Maqsudovich Narimonov

Katta o‘qituvchi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

ORCID: 0009-0003-7727-3496

E-mail: diyorbekmaqsudovich93@gmail.com

Tel.: +998901759317

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr ikkinchi yarmi, xususan, 1950–1960-yillarda Saudiya Arabistoni podshohligida ro'y bergan ichki siyosiy vaziyat tahlil etiladi. Tadqiqot markazida podshoh Saud ibn Abdulaziz va valiahd shahzoda Faysal ibn Abdulaziz o'rtasidagi hokimiyat kurashi, shuningdek hokimiyat uchun kurashdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar, Saud sulolasining ichki ziddiyatlari, qabila yetakchilarining ta'siri, neft daromadlarining keskin o'sishi fonida yuzaga kelgan moliyaviy inqiroz va davlat boshqaruvida samaradorlik talabining kuchayishi Faysalning islohotchi siyosatchiga aylanishidagi hal qiluvchi omillar sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Saudiya Arabistoni podshohligi, konsession ulushlar, inqiroz, konstitutsiyaviy islohotlar, Vazirlar Kengashi, “so‘l” kuchlar, “Erkin amirlar”, Milliy islohotlar fronti, ARAMKO, “Sudayra yettiligi”.

THE BALANCE OF DOMESTIC POLITICAL FORCES IN THE KINGDOM OF SAUDI ARABIA IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY

Diyorbek Maqsudovich Narimonov

Senior Lecturer,

Tashkent State University of Oriental Studies.

ORCID: 0009-0003-7727-3496

E-mail: diyorbekmaqsudovich93@gmail.com

Tel.: +998901759317

Abstract: This article analyzes the internal political situation in the Kingdom of Saudi Arabia during the second half of the twentieth century, particularly in the 1950s–1960s. The study focuses on the power struggle between King Saud ibn Abdulaziz and Crown Prince Faisal ibn Abdulaziz, as well as the political, social, and economic factors underlying the contest for power. The internal contradictions within the House of Saud, the influence of tribal leaders, the financial crisis that emerged against the backdrop of rapidly growing oil revenues, and the increasing demand for efficiency in public administration are examined as decisive factors in Faisal's transformation into a reform-oriented statesman.

Keywords: *Kingdom of Saudi Arabia, concession shares, crisis, constitutional reforms, Council of Ministers, "leftist" forces, "Free Princes", National Reform Front, ARAMCO, "Sudairi Seven".*

РАВНОВЕСИЕ ВНУТРЕННИХ ПОЛИТИЧЕСКИХ СИЛ В КОРОЛЕВСТВЕ САУДОВСКАЯ АРАВИЯ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА

Диёрбек Максудович Нариманов

Старший преподаватель,

Ташкентский государственный университет востоковедения.

ORCID: 0009-0003-7727-3496

Электронная почта: diyorbekmaksudovich93@gmail.com

Тел.: +998901759317

Аннотация: В данной статье анализируется внутривнутриполитическая обстановка в Королевстве Саудовская Аравия во второй половине XX века, в особенности в 1950–1960-е годы. В центре исследования — борьба за власть между королём Саудом ибн Абдулазизом и наследным принцем Фейсалом ибн Абдулазизом, а также политические, социальные и экономические факторы, обусловившие это противостояние. Внутренние противоречия внутри династии Аль Сауд, влияние племенных вождей, финансовый кризис, возникший на фоне стремительного роста нефтяных доходов, и усиление требований к эффективности государственного управления рассматриваются как решающие факторы, способствовавшие превращению Фейсала в политика-реформатора.

Ключевые слова: Королевство Саудовская Аравия, концессионные доли, кризис, конституционные реформы, Совет министров, «левые» силы, «Свободные принцы», Фронт национальных реформ, АРАМКО, «Семёрка Судайри».

KIRISH

Jamiyat paydo bo‘lganidan beri unda yetakchilik qilish, hokimiyatni qo‘lga olish va unga egalik qilish uchun kurashlar davom etib keladi. Bu narsa barcha davrlarda, mavjud bo‘lgan hokimiyatlarda yuz bergan va hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Bunga misol sifatida XX asrning ikkinchi yarmi boshlarida Saudiya Arabistoni Podshohligida taxtni egallash va mamlakat boshqaruvini qo‘lga kiritish uchun bo‘lib o‘tgan ichki siyosiy kurashlarni ko‘rsatish mumkin. Bu kurashlar turli yo‘llar bilan olib borilganini, ya’ni ba’zan turli fitnalarni uyushtirish yoki o‘ta nozik siyosiy o‘yinlarni amalga oshirish orqali olib borilganligiga guvoh bo‘lamiz. Tarixda bunday fitnalarni va o‘yinlar faqatgina mamlakatni siyosiy inqiroz ko‘chasiga kirishiga va ijtimoiy-iqtisodiy hayotni oqsashiga sabab bo‘lgan xalos.

XX-asrning 50-yillarida arab davlatlaridan biri bo‘lgan Saudiya Arabistoni podshohligidagi ahvol ham shunday ko‘rinishda edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Saudiya Arabistonida 1953-yil 9-noyabrda Toifda qirol Abdulaziz ibn Saud vafot etadi. U hayotligida bir necha qonuniy xotinalari bo‘lib, uning vafotidan so‘ng 34 nafar o‘g‘illari qoldi. Islom qonunlariga ko‘ra, qariyb 100 ga yaqin shahzodalar taxtga o‘tirgan qirolga va bo‘lg‘usi taxt vorisiga qasamyod qilgan bo‘lsalar, haqiqatda esa, shu paytdan boshlab qirollik oilasida taxtni egallash uchun bir necha guruhlar o‘rtasida kurashlar boshlangandi.

Saud ibn Abdulaziz qirollik taxtiga o‘tirgach, o‘z hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi. Taxt vorisi sifatida Faysal ibn Abdulazizda bosh vazir o‘rinbosari va tashqi ishlar vaziri o‘rinlari qolgan bo‘lsada, muhim sanalgan hukumat mansablariga o‘ziga sodiq o‘g‘illarini qo‘yadi. Qirollik oilasi hukumat o‘rinlari va konsession¹ ulushlari yuzasidan dushmanlashgan (bir-biriga qarama-qarshi) bir necha guruhlariga bo‘linib ketadi. Yangi qirol Saud ibn Abdulaziz otasi kabi siyosat yuritishda qobiliyatli emasdi. U davlatni boshqarishda hech qanday yangilikka intilmas, hukumatni ham deyarli o‘z nazoratida ushlamasdi. Boshqa tomondan esa, beayov sovurilgani sababli davlat xazinasini ham borgan sari bo‘shab borardi. Bir so‘z bilan aytganda, davlat har tomonlama inqirozga yuz tuta boshlagandi. Bunga esa albatta, qirollik oilasining qolgan vakillari ko‘z yumib turisha olmasdi. Saudning sahovatiga sazovor bo‘lib turganlar u tomonga, uning faoliyatidan qoniqmaganlar esa boshqa tomonlarga o‘tib, o‘ziga xos qirollik oilasidagi taxt uchun kurashuvchi bir necha guruhlarni tashkil etishgandi. Saud ibn Abdulazizning qirolligi davridagi hokimiyatning inqirozi ana shu guruhlar noroziliklarini kuchaytirib yubordi. Mana shunday nizolar natijasida yuzaga kelgan vaziyatda birinchi bo‘lib o‘z noroziligini bildirgan shaxs uning inisi Muhammad bo‘ldi. U o‘zi aslida Saudga yaqin bo‘lgan hamfikr guruhlardan birining a‘zosi edi.

Lekin, inqirozni chuqurlashib ketish xavfi 1955-yildayoq Muhammadni hokimiyatni Faysal ibn Abdulazizga topshirish rejasi bilan chiqishga majbur qilgandi². Afsuski, bu urinish sal vaqtliroq boshlangandi, chunki hokimiyatni topshirish zaruriyati atrofidagi umumiy fikrlar hali shakillanmagandi. Boshqa tomondan esa, Abdulaziz ibn Saudning o‘g‘illari orasida anchagina uquvli va tajribali siyosatchi hisoblangan taxt vorisi shahzoda Faysal ibn Abdulazizning tarafdorlari ham ko‘pchilikni tashkil etardi. Toj uchun kurashda Faysal ibn Abdulaziz ham o‘z tarafdorlarini to‘play boshladi. U Saudi konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazishga ko‘ndira oldi.

MUHOKAMA

Avvalgi qirol Ibn Saud o‘z davrida turli urug‘ vakillarini yagona davlatga jamlab, ularni o‘zaro ko‘p sonli nikoh iplari bilan bog‘lash orqali mustahkamlagan edi. Uning bu siyosiy nikohlardan tug‘ilgan o‘g‘illari, o‘zlarining ona urug‘lari tomonidan hokimiyatni egallash uchun kurashadigan asosiy raqobatchi kuchlarni tashkil etardilar³.

¹ Yer, kon va korxonalaridan foydalanishda davlat bilan ayrim kapitalistik yoki firma o‘rtasida tuziladigan shartnoma

² О.И.Байба “Эволюция социально-политических структур саудовской Аравии в XX веке” Москва,1997

³ “Новейшая история арабских стран Азии (1917-1985)” Москва-1988, 228-бет

1953-yil oktyabrda qirol rahbarligida umumdavlat Vazirlar Kengashi tashkil etildi. Faysal ibn Abdulaziz bosh vazirning birinchi o‘rinbosari va tashqi ishlar vaziri etib tayinlandi⁴. Faysal ishga kirishgach, avvalgi paytlarda uni ko‘pchilik guruhlar, jumladan, qirol oilasidagi “so‘l” kuchlar (guruhlar) ham qo‘llab-quvvatlab turdilar. Bu “so‘l” kuchlarga qirolni inisi Talol boshchilik qilib, u o‘z tarkibiga “Erkin amirlar” maqomiga ega amirlarni to‘plagan edi. “Erkin amirlar” konstitutsiyaviy, iqtisodiy va boshqa islohotlar dasturini olg‘a surishardi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bunday harakatlar qirol Saud ibn Abdulazizga yoqmasdi. Chunki, bunday islohotlarga yo‘l qo‘yib berilsa unga va uning hokimiyatiga putur yetishi aniq edi.

Lekin 50-yillar ikkinchi yarmi oxirlarida ketma-ket yuz bergan voqealar rivoji amaldagi hokimiyat faoliyatini tubdan o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatib qo‘ydi. Ya’ni, taxtda o‘tirgan qirol Saud ibn Abdulaziz vaziyat taqozosi bilan davlat boshqaruvida va ijtimoiy-siyosiy hayotda o‘zgarishlarni talab qilayotganlar bilan muzokara ko‘chasini tanlab kelishishga va o‘z qo‘lida saqlab turgan hokimiyatining bir qismini topshirishga rozi bo‘ldi.

1957-yil ikkinchi yarmi 1958-yil boshlarida mamlakatda Milliy islohotlar fronti boshchiligida antiimperialistik kurashlar boshlanib ketdi. Ular Saudiya Arabistoni ijtimoiy tuzumini tubdan erkinlashtirishni, Daxrandagi AQSH harbiy bazasini yopishni, AQSH bilan har qanday harbiy kelishuvlarni bekor qilishni, ARAMKO kompaniyasining mamlakat ichki ishlariga aralashishini ta’qiqlashni, mamlakat tabiiy boyliklaridan xalq manfaati yo‘lida foydalanish va boshqa ko‘plab talablar bilan chiqqan edilar.

Qolaversa, 1958-yilga kelib muammolarni chuqurlashib ketishi vaziyatni chigallashtirib yuboradi. Ayni shu vaqtga kelib, hukumat qarzlari 1,8 mlrd. saudiya rialiga (480 mln. doll.) yetadi. 5 Asosiy pul muomalasi sifatida ishlatiladigan kumush tangalar butunlay muomalaga chiqarilgan edi. Milliy valyutaning qadri tushib ketganligi sababli, chetga chiqib keta boshlagandi. Vaziyat zarur choralar ko‘rilishini talab etardi, lekin qirolning jismoniy va ma’naviy holati bunga yo‘l qo‘ymasdi.

Lekin tarixdan ma’lumki, siyosiy maydondagi biron-bir tarafning inqirozi va yoki ta’sirining kamayishi boshqa tomonga qo‘l kelishi mumkin. Qolaversa, Ibn Saud oilasi boshqaruvini saqab qolish uchun ham zarur choralar ko‘rish kerak edi. Lekin bu narsala o‘z-o‘zidan bo‘lmas edi. Chunki mamlakat ichki va xalqaro hayotida ham inqiroz ko‘chasiga kirib qolgandi.

Mamlakatda shunday vaziyatni yuzaga kelishi fursatidan foydalanib qolishga harakat qilgan Saudning inilari uchun ham qo‘l keldi. Toj va mamlakatni saqlab qolish mas’uliyatini oilaning eng obro‘li va uzoqni ko‘ra oladigan a’zolari o‘z zimmalariga oldilar: ular Ibn Saudning o‘g‘illari Muhammad va kelgusida taxt vorisligiga da’vogar Fahd edi. Ularni esa, urug‘lar o‘rtasida anchagina hurmatga ega bo‘lgan Xolid va Abdulloh (keyinchalik qirol bo‘lishgan), qolaversa, mashhur

⁴ “Новейшая история арабских стран Азии (1917-1985)” Москва-1988, 228-bet

⁵ О.И.Байба “Эволюция социально-политических структур саудовской Арабии в XX веке” Москва,1997

Sudayra urug‘idan bo‘lgan onalarining nomi bilan taniqli, “Sudayra yettiligi”ni tashkil etgan Fahdning barcha oltita inilari qo‘llab-quvvatlaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aynan shu paytda mamlakatning moliyaviy ahvoli ancha og‘irlashgandi. Natijada sharqiy viloyatlarda aholining noroziliklari kuchayib, namoyishlar bo‘lib o‘tadi bu namoyishlarda mahalliy amaldorlar, ziyolilar, ayrim ofitserlar ham ishtirok etadi.

Namoyishchilarning qanday kayfiyatda bo‘lganligini Nasir as-Sayidning “Qirol Saudga murojatnomasi”dan bilish mumkin. Bu namoyishga chiqish orqali matbuot, vijdon, e’tiqod erkinligi hamda eskicha jazolashlarni, ya’ni qo‘lini kesishni bekor etish, shialarni tan olish, Daxrandagi Amerika bazasini yo‘q qilish, qullikni bekor etish va Jamiyat ahloqi ligasini yopish singari bir qator talablar keltirilgan edi.

Shahzodalar shafqatsizlik bilan harakat qilib, qirolning kichik xatolaridan ham foydalanishgan. Mamlakatda vaziyatni yanada keskinlashishidan xavfsiragan Saudiylar va ulamolar boshqaruvni valiahd Faysal ibn Abdulazizga topshirishga qaror qilishadi.

“Ko‘p sonli qirol oilasi doimo bir xil bo‘lmagan, ya’ni uning a‘zolari turlicha ijtimoiy o‘rinda bo‘lishgan va davlat g‘aznasidan alohida maosh olishgan” - deb yozgan N.I.Proshin. Biroq Saud ibn Abdulaziz tirikligida oilasida ochiqcha o‘zaro nizolar bo‘lmagan. Chunki qirol ularni mablag‘dan ayirishi mumkin edi. Saudning o‘limidan keyin qirollik oilasi turli guruhlarga bo‘linib ketadi, ularning har biri o‘ziga katta ulush olishni istashgan⁶.

Tajribali va nozik siyosatchi valiahd shahzoda Faysal ibn Abdulaziz o‘z atrofida saroyda Saud ibn Abdulazizning farzandlari kuchayishidan norozi bo‘lib yurgan tarafdorlarni to‘plagan. Saud ibn Abdulazizni yomon hukmdor deb ko‘rsatgan. Avvaldan amerikaliklar bilan yaqin bo‘lgan Faysal o‘zini islohotchi qilib ko‘rsatgan.

1958-yilda kurashuvchi guruhlar Saud ibn Abdulazizga ultimatum qo‘yib, Faysal ibn Abdulazizga boshqaruvni topshirishini, atrofida maslahatchilarini olib tashlashini talab etishgan. 1958-yil 24-martda Fahd ibn Abdulaziz boshchilidagi shahzodalar guruhi Faysal ibn Abdulazizga boshqaruvni berish to‘g‘risida qirolga ultimatum qo‘yishadi⁷.

Ushbu vaziyatdan foydalanib ular Saud ibn Abdulazizning oldiga bir necha talablarni qo‘yishadi. Bu talablar butun hokimiyatni Faysal ibn Abdulazizga topshirish, qirol maslahatchisi lavozimida ishlagan Yusuf Yasin va Jamol Husaynlarni ishdan olish, AQSH elchisini mamlakatdan chiqarib yuborish, qirol inilarini uning o‘g‘illari bilan huquqini tenglashtirish, o‘g‘irlik uchun qatlni cheklash va boshqa talablar edi. Lekin qirol Saud ibn Abdulaziz bu talablardan bosh tortib, AQSH elchisiga qo‘llab - quvvatlashini so‘rab murojaat qiladi. Elchi esa, yaqin orada mamlakatni inqirozdan olib chiqib ketishi mumkinligiga umid

⁶ Н. И. Прошин. Саудовская Аравия, М., 1964., с. 166.

⁷ «Новейшая история арабских стран (1917-1966)» Москва 1968, стр-91

qilib, qirolga hokimiyat boshqaruvini Faysalga topshirishni maslahat beradi. Voqealar oqimi bunday o‘zgarib ketganligi sababli chorasiz qolgan qirol Saud ibn Abdulaziz unga qo‘yilgan qat‘iy talablarni qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Avvaliga ushbu voqealarni G‘arb ommaviy axborot vositalari salbiy qabul qiladi. 1958-yil 25-martda “Nyu-York Gerald Tribyun” gazetasi yozganki, “Bu hodisa G‘arbning O‘rta Sharqdagi pozitsiyalariga og‘ir zarba berishi mumkin”. Ammo bir oz vaqtdan keyin AQSH davlat kotibi Dalles Faysal ibn Abdulazizni hukumat boshqaruviga kelishi - “ishlar yaxshi ketishini bildiradi”, bu “Arab-Amerika munosabatlarida o‘zgarishlarga olib kelmaydi”.

XULOSA

Shu jihatdan xulosa qiladigan bo‘lsak, avvalo ko‘rinib turibdiki, davlat boshqaruvida qirollik oilasi juda muhim rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra, davlat boshqaruvida o‘z so‘ziga va o‘z o‘rniga ega bo‘lish maqsadida siyosiy maydonga chiqqan har qaysi shahzoda ularning e‘tiborini qozonishi va hokimiyat uchun kuchli raqobat mavjud bo‘lgan monarxiyada o‘zini qo‘llab – quvvatlovchi tayanchlarga ham ega bo‘lishi kerak.

Saudiya Arabistoni Podsholigi mintaqadagi yagona mutloq monarxiyaga asoslangan davlat sanaladi. O‘sha davrda mintaqada milliy-ozodlik kurashlari kuchaygan, revolyutsion kayfiyat o‘sgan pallada ham ichki ham tashi siyosatda juda moxirona faoliyat olib borilishi mamlakatda Saudlar hukmronligini saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. De Gaury, G. Faisal: King of Saudi Arabia. — London: Arthur Barker, 1966.
2. Yizraeli, S. The Remaking of Saudi Arabia: The Struggle Between King Sa'ud and Crown Prince Faysal, 1953–1962. — Tel Aviv: Moshe Dayan Center, 1997.
3. Байба О.И. Эволюция социально-политических структур Саудовской Аравии в XX веке. — Москва, 1997.
4. Васильев А.М. История Саудовской Аравии (1745 — конец XX в.). — М.: Классика плюс, 1999. (Mavzu bo'yicha eng fundamental asar)
5. Васильев А.М. Король Фейсал Саудовской Аравии: личность, вера, время. — М.: Восточная литература, 2010.
6. Зайчиков В.И. Король Фейсал ибн Абдель Азиз: путь к власти, саудовские реформы // Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. — М., 2003.
7. Луцкий В.Б. Новая история арабских стран. — М.: Наука, 1966.
8. Новейшая история арабских стран Азии (1917–1985). — М.: Наука, 1988.
9. Новейшая история арабских стран Азии (1917–1985). — Москва, 1988. — С. 228.
10. Примаков Е.М. Анатомия ближневосточного конфликта. — М.: Мысль, 1978.
11. Прошин Н.И. Саудовская Аравия. — Москва, 1964. — С. 166.